



O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA MALAYZIYA ISLOM TURIZMI TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.

Tillayeva Oltinoy Baxtiyorovna

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti, Raqamli

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7107489>

ARTICLE INFO

Received: 17th September 2022

Accepted: 19th September 2022

Online: 23rd September 2022

KEY WORDS

turizm, ziyorat turizmi, WTTC, investitsiya, IHT, islom turizm bozorlari.

Turizm bugungi kunda dunyo mamlakatlari xizmat ko'rsatish sohasining eng yirik yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Uning iqtisodiyotning boshqa sohalaridan ustun jihatlari shu bilan ifodalanadiki, turli taraqqiyot bosqichida bo'lgan barcha mamlakatlarda ham rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi. Buni nafaqat, tarixiy joylar, balki, geografik joylashuv, iqlim va ob-havo sharoiti, ba'zi hollarda, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy yoki ekologik muammoli, xatto, ekstremal sharoitdagi hudud hamda xilma-xil uslublarda qurilgan inshootlar ham sayohat obyektiga aylangan holda byudjetga daromad keltirishida ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, keyingi vaqtda dunyo mamlakatlari qisqa muddatlarda katta daromad keltiruvchi moliyaviy sohalar bilan bir qatorda turizmga ham davlat darajasida katta e'tibor qaratmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda ham turizm sohasiga alohida e'tibor ko'rsatib kelinmoqda, jumladan, "Ichki va ziyorat turizmi" sohasida yuqori malakali

ABSTRACT

Ushbu maqolada mamlakatimizda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor, ayniqsa ziyorat turizmi sohasida olib borilayotgan islohotlar va ularning amliy namunalari, turizm sohasidagi chet el mamlakatlarining andozalari va ularning yurtimizda qo'llanilishi, ayniqsa Malayziya Islom turizmi tajribasi va uning yutuqlarini O'zbekistonda qo'llash, shu bilan bir qatorda ushbu sohada kamchilik va muammolar keng va atroflicha yoritilgan.

mutaxassislar tayyorlash maqsadida hozirda 2 ta ilmiy-tadqiqot instituti (turizm va madaniy meros yo'nalishlari bo'yicha), 4 ta kollej, 6 ta texnikum hamda Turizm va madaniy meros vazirligi tizimida Samarqand shahrida joylashgan Ipak yo'li xalqaro turizm va madaniy meros universiteti faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda ziyoratgohlar, olimlar, ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni shakllantirish hamda ziyorat turizmi salohiyatini har tomonlama o'rganish, ma'lumotlarni tizimlashtirishga qaratilgan xalqaro tadbirlar o'tkazilib kelinishi ham yurtimizda turizmga e'tibor qanchalik yuqoriligini isbotlab turibdi. Bugungi kunda O'zbekistonda 784 ta islom ziyoratgohi, viloyatda 19 ta xristian ziyoratgohi va 8 ta buddizm madaniy merosi obekti mavjud.

Ichki va tashqi sayyohlikni keng yo'lga qo'yish, respublikada turizm sohasini modernizatsiyalash, sohani barqaror rivojlantirish, turizm markazlari



hisoblangan hududlarda turistik, maishiy va aloqa-axborot infratuzilmalarini rivojlantirish, mahalliy va xorijiy mehmonlarga xalqaro standartlarga muvofiq xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, bu boradagi belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, yurtimizda turizm sohasini rivojlantirish birinchi navbatda dunyo hamjamiyatida O'zbekistonning mavqeini mustahkamlaydi, xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar va ishonchli hamkorlik eshiklarini ochadi, mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlari barqarorligiga, aholi daromadlari, bandligi va tadbirkorligi kabi ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga omil bo'lib, xizmatlar sohasining yana-da takomillashuviga sabab bo'ladi.

Qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etib kelayotgan mamlakatimizda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar turizm industriyasi hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Buni Jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan "Sayohat va sayyohlik sanoatining iqtisodiy natijalari" bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda respublikamiz sayyohlik sohasi jadal taraqqiy topayotgan besh davlatning biri sifatida qayd etilgani misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish hamda yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi, balki aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, yurt farovonligi va taraqqiyoti yuksalishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, har 30 nafar sayyoh mamlakat turizmi sohasida bitta, unga turdosh tizimlarda esa ikkita yangi ish o'rnini yaratishga turtki beradi.

Har yili yurtimizga dunyoning 70 davlatidan ikki millionga yaqin sayyoh tashrif buyuradi. Ular uchun madaniy-tarixiy turizm eng ommabop bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, mavjud 500 dan ortiq turistik kompaniyalarning 110 dan ziyodi xalqaro yo'nalishlarda izchil faoliyat olib borayotgani sayyohlarni yurtimizga keng jalb etishda muhim omil bo'layotir.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida sohani tartibga solish hamda uning huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun zarur normativ-huquqiy baza yaratildi. Xususan, Prezidentimizning o'tgan yil dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori sohada tub burilish yasalishiga, taraqqiyotda yangi sahifalar ochilishiga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbarining joriy yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishdagi islohotlarni yanada kengaytirishda muhim ahamiyatga ega hujjat bo'ldi.

Respublikamizda turizm sanoatini jadal rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib borayotganligini yuqoridagi omillar bilan ifodalash mumkin. Shu o'rinda aytish joizki, mamlakatimizda turizmning har xil sohalarini rivojlantirish istiqbollari yetarli,



ammo mavjud muommolar bunga to'sqinlik qilib turmoqda.

Xususan, milliy sayyohlik mahsulotlarining raqobat bardoshligi imkoniyatining sustligiga yashash va aviaparvozlar uchun yuqori narxlar, servis darajasining cheklanganligi, muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalarning nomukammalligi, qulay sayyohlik axborot ta'minoti (navigatsiya va axborot markazlari) mavjud emasligi, malakali kadrlarning tanqisligi, O'zbekistonni xorijda targ'ib qilishning zaifligi kabi muommolar asosiy sabab bo'lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, sayyohlar uchun ma'muriy va iqtisodiy to'siqlar, viza tartiblari, turizm faoliyati bilan shug'ullanishda (litsenziyalash va sertifikatlash) davlat nazoratining o'ta kuchli ekani muammolar sonini oshiradi. Ta'kidlash joizki, Turizm statistikasining mukammal va sifatli bo'lishi, ma'lumotlarning shaffofligi mamlakatga, nafaqat, chet el investorlari, balki, rezidentlarining ham qiziqishini uyg'otadi. Bunda, eng avvalo, turizmni rivojlantirishdagi chigal masalalardan biri xalqaro miqyosda sohaga oid bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'lib, har qanday holatda — mazkur sohaga yangi kirib kelgan investorlarni jalb etish yoki xalqaro hisob-kitob ishlarini olib borish uchun ham to'liq va ishonchli, doimo ochiq bo'lgan ma'lumotlarni olish zarur bo'lib hisoblanadi. Yetarli transport infratuzilmasi, mehmonxona xizmatidan tortib savdo majmualaridagi sharoitlargacha, ovqatlanish, turar joy, aviachiptalar hamda parvozlar, turizm turlarining o'zaro klasterli hamkorligining yetarli emasligi, shuningdek ijtimoiy turizm muommolari ham bugungi kunda hamon

mamlakatimizdagi turizm rivojlanishining asosiy to'siqlari bo'lib xizmat qilmoqda.

Yurtimizda ziyorat turizmining rivojlanish imkoniyatlari hamda istiqbollari yetarlicha, ammo ushbu yo'lda bir qator ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Islomiy turizm yaqin tarixda paydo bo'lgan hodisa deya qaraladi. Barcha ijobiy o'zgarishlarga qaramay, islomiy turizm bozori hali hamon halol maxsulotlarning xilma-xilligi, daromad darajasi, xabardorlik darajasi, joylashuvi, dini va etnik kelib chiqishi bilan ajralib turadi. Bular IHT (Islom Hamkorlik Tashkiloti) mamlakatlarida islom turizmi faolligini oshirish yo'lidagi asosiy to'siqlardandir. Quyida IHT mamlakatlarida islomiy turizmning rivojlanishini cheklaydigan ayrim muammolar hamda islom turizm bozorini rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar keltirilgan.

- Yagona va global standart va sertifikatlash tizimining yo'qligi: islomiy turizm sanoati uchun yagona xalqaro halol standart va sertifikatlashtirish tartibi mavjud emas. Darhaqiqat, IHT davlatlarining aksariyatida milliy darajada mehmonxonalar va yo'nalishlarni islom talablariga muvofiq sertifikatlash bo'yicha rasmiy organ mavjud emas.
- Moliyaviy cheklovlar: Jahon turizm industriyasining yangi rivojlanayotgan segmenti sifatida islom turizmi yetarlicha moliyaviy resurslarga ega emas. Biroq, muvaffaqiyatlar soni ortib borayotgan sarmoyadorlar ushbu segmentga uning salohiyati va o'sib borayotgan bozor hajmini hisobga olgan holda tegishli e'tibor qaratishlari mumkin.
- Jins: Aksariyat musulmon mamlakatlarda ayollarning turizm sohasida bandligi turli ijtimoiy va madaniy sabablarga ko'ra muammo hisoblanadi.



Bundan tashqari, ba'zi musulmon mamlakatlarida ayollarga yolg'iz sayohat qilish taqiqlangan. Shunday qilib, dunyo musulmon aholisining muhim qismi islom turizm bozoridan o'z-o'zidan chiqarib yuborilgan.

- Islomiy qadriyatlar va e'tiqodlarning ta'siridagi farqlar: Islomiy qadriyatlar va e'tiqodlarni tushunish va ta'sir qilishda IHT mamlakatlarida sezilarli farqlar mavjud. Bu mavjud farqlar ularning turizmni rivojlantirish siyosatida ham o'z aksini topadi. Ayrim IHT mamlakatlari sayyohlarga nisbatan yumshoqroq va mehmondo'st bo'lsa-da, ba'zilari konservativ va unchalik qiziqish bildirmaydi. Aynan yuqoridagi holatlarni ham mamlakatimiz turizm salohiyatida uchratishimiz mumkin.

Yurtimizda mavjud bo'lgan ziyorat turizmi bevosita islom dini bilan bog'lanadi, shuningdek, uning rivojiga ham xalqaro islomiy turizm ko'rsatkichlari ta'sir o'tkazadi. Malayziyada islomiy turizm taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari mavjud, va ayni damda ushbu xususiyatlardan mamlakatimizda ham keng qo'llanilinsa ziyorat turizmi rivojiga ham katta hissa qo'shadi.

O'zbekistonda ziyorat turizmini targ'ib qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar, shuningdek, mamlakatning boy islom merosini xalqaro miqyosda o'rganish va ommalashtirish bo'yicha keng ko'lamli tashabbuslari tufayli 2021 yilda Respublika musulmon turizmining global indeksida 6 pog'ona ko'tarilib, 16-o'rinni egallagani qayd etildi.

Islom turizmi markazi 2009 yilda tashkil etilgan bo'lib, Malayziya turizm, san'at va madaniyat vazirligining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

Malayziyda Islomiy turizm taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi sabab omillari quyidagilar:

1. Ibodat qilish joyi. Islom ahkomlariga ko'ra musulmonlar kunda besh marotaba Kabaga yuzlangan holda ibodat (namoz) amalini bajarishlari zarur, bunda muvofiq namozxonalar muhim ahamiyatga ega.
2. Halol oziq-ovqat. Halol oziq-ovqat mahsulotlari musulmonlar va musulmon bozorini boqadigan restoranlar va yetkazib beruvchilar uchun juda katta ahamiyatga ega.
3. Jins ajratish. Shariatga ko'ra jins muttanosibligi muhim, ya'ni xizmat turlari albatta ayollar va erkaklar uchun alohida shakllantirilgan bo'lishi kerak.
4. Spirtli ichimliklarni taqiqlash. Spirtli ichimliklardan tortib, ularning savdosiga qadar Islom dini e'tiqodchilari uchun harom amal hisoblanadi.
5. Qimor o'yinlarini taqiqlash. Musulmonlarga qimorboz bo'lish yoki qimor sanoatida ishtirok etish yoki qatnashgan bo'lishiga qaramay, qimor o'yinlari bilan bog'liq har qanday bog'liq harakatlar taqiqlanadi.
6. Zinokorlik ta'qiqlanadi. Musulmonlar uchun jinsiy mayl erkinligi ta'minlangan hududlarga tashrif buyirish, ishtirok etish qat'iyon taqiqlanadi.
7. Shariatga muvofiq kiyinish. Musulmon ayollarining shariatga muvofiq kiyinishlari Islomiy turizm rivojiga yetarli ta'sir o'tkazadi.
8. Yolg'iz ayol sayohatini cheklash. Kuchli zaruriyat bo'lmagan holda, musulmon ayollari uchun mahram hisoblangan shaxslarsiz yolg'iz sayohatga chiqishlari taqiqlanadi.



Aytib o'tish joizki, islomiy turizm bu bevosita shariat bilan uzviy aloqada. Ushbu turizm taraqqiyotida shariat qoidalarini ko'rib chiqish, boshqa turizm bizneslari bilan klasterli hamkorlik tashkil etish, diqqatga sazovor joylar, aeroportlar, tashrif buyuruvchilar uchun ma'lumot markazlarini yaratish ustuvor masalalardan biridir. Musulmonlarning turistik ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli turizm komponentlarini yig'ish, tegishli turistik mahsulot va xizmatlarni yaratishda xizmat ko'rsatuvchi asosiy provaydning vazifasi kattadir. Hukumat tomonidan mamlakatda iqtisodiy istiqbolni yaxshilash uchun yangi turistik diqqatga sazovor joylarga ega turizm loyihalarini yaratish ustuvor ahamiyatga ega. Tekshiruv natijalari shuni ko'rsatdiki, musulmon sayyohlarning qayta tashrif buyurish niyatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan bir qancha elementlar mavjud. Xususan, ularga: halol oziq-ovqat mavjudligi, musulmonlar uchun qulay oilaviy paketlar, masjidlariga oson kirish va tashrif buyurish uchun yetarli transport infrastrukturallari kabilar kiradi.

Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishning qator imkoniyatlari ham mavjud.

- Iqtisodiy o'sish uchun islomiy turizm salohiyati: Ko'pgina IHT mamlakatlari musulmon turistlarning ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy infratuzilma va muhitga ega bo'lgan taqdirda, ular islom turizm bozoridan ko'proq foyda olishlari mumkin. Shuning uchun islom turizmining rivojlanishi bu mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi va farovonligida muhim rol o'ynashi muqarrar. Xorij mamlakatlarining tajribalaridan foydalangan holda, yurtimizda ham ushbu turizm rivoji tufayli

iqtisodiy sektorni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

- Innovatsion turizm mahsulotlari: IHT mamlakatlari uchun an'anaviy ziyorat va diniy sayohat tajribalarini madaniyat va meros bilan bog'liq faoliyat bilan birlashtirish, noyob va innovatsion turizm paketlarini yaratish imkoniyatlari mavjud. Islomiy va meros obyektlari bo'lgan yo'nalishlar uchun musulmonlarga mos madaniy sayohat paketlarini ishlab chiqish orqali o'z salohiyatini rivojlantirish va bozorga chiqarish imkoniyati ortib bormoqda.

- Ijtimoiy media: Internet va ijtimoiy media kengroq auditoriyaga islom turizm brendlari, mahsulotlari va xizmatlarini joriy etish, joylashtirish va sotish uchun muhim aloqa platformasini ta'minlaydi.

Yuqoridagi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda Malayziya tajribasidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Milliy va IHT hamkorlik darajasida Siyosat va yo'riqnomalarni uyg'unlashtirish: Islomiy turizmini rivojlantirish va IHT mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash uchun islom turizmi siyosati va yo'riqnomalarini uyg'unlashtirish usullarini ishlab chiqish zarurati mavjud.

- Islomiy turizmini rivojlantirish bo'yicha tajriba almashish: IHT mamlakatlari orasida Malayziya, Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi muvaffaqiyatli islom yo'nalishlariga ega bo'lgan mamlakatlar bilan bevosita aloqalarni ishlab chiqish zarur. Rivojlanayotgan islomiy turizm bozorlari va yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar o'rtasida bilimlarni uzatish va tajriba almashishni osonlashtirishga harakat qilinishi kerak.



Xulosa qilib aytganda, xalqimiz azaldan vatanimizdagi barcha ziyoratgohlarni aziz va muqaddas deb bilib kelishadi. O'zbekistonda ziyorat qilinadigan joylarga sayyohatchilarni jalb qilish va turizmning bu turini rivojlantirish uchun malakatimiz yuqori salohiyatga ega. Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda xalqimizdagi ushbu ziyoratgohlarga bo'lgan hurmati va boshqa xususiyatlarini e'tiborga olishimiz va foydalanishimiz lozim. Shuning uchun ham ziyorat turizmini nafaqat ichki balki xalqaro darajada rivojlantirishda har bir

viloyatlardagi va har bir tumanlardagi ziyoratgohlarning ro'yxatini, manzilini va ziyorat qilish xususiyatlari haqidagi axborot ma'lumotlarni puxta ishlab chiqishi talab qilinadi.

Shuningdek, tadqiqotchilar O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish va Quvayt, Qatar, Oman, Saudiya Arabistoni, Indoneziya, Malayziya, Turkiya, Pokiston, Eron kabi davlatlardan musulmon xalqlarini O'zbekistonga jalb qilish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to'g'risidagi Farmoni. // „Xalq so'zi|| gazetasi, 1999-yil 1-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori. —Xalq so'zi|| gazetasi, 2006-yil 18-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida 2010-yilgacha bo'lgan davrida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishiga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori. „Xalq so'zi|| gazetasi, 2007-yil 22-may.

Internet saytlar:

1. www.world-tourism.org- Vsemirnaya turistskaya organizatsiya
2. www.wttc.org- Vsemirniy Sovet po puteshestviyam i turizmu
3. www.tag-group.com- Konsultativnaya gruppа po voprosam Turizma
4. www.ekonomtour.ru- Ekonomicheskiye turi.
5. www.kun.uz – yangilik axborot sayti